



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**ETNOMADANIYAT
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Chirchiq – 2024

Fan/modul kodi Et1308	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'llim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'llim (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Etnomadaniyat	60	60	120
I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – xalqimizning tarixiy shakllanishi, o'zbek xalqining etnogenezi, etnos sifatida o'ziga xos xususiyatlari, an'ana, urf-odat va marosimlarili, qadimiylarini tasavvurlarining arxiylari, milliy o'zlikni anglash, milliy his-tuyg'u, harakterning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, joy nomlari asosida tarixni qayta jonlantirish masalalari bo'yich bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, milliy ma'naviyatimizga tegishli urf-odatlar an'analar, folklor namunalari, maqollar, topishmoqlar, diniy tasavvur va qarashlarning milliy o'zlikni anglashdagi o'rnni o'rganish asosida o'zbek xalqining boy madaniy-ma'naviy merosini tahlil qilish. Milliy o'zlikni anglash masalasida etnomadaniyat va milliy mentalitetning o'rnni aniqlash, talabalarda milliy g'urur va milliy iftixon tuyg'ularni yanada mustahkalash, hamda talabalarning milliy urf-odat va an'analariga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, etnomadaniy bilimlarini oshirish, Markaziy Osiyo, xususan yurtimiz madaniyati tarixi haqida bildirilgan fikrlarga mantiqiy va tanqidiy mulohazalar bildirish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.				
II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
1-mavzu. Etnomadaniyat fanining predmeti, obyekti va maqsad vazifalari <p>Mustaqillik sharoitida xalqimizning turmush tarzi, urf-odat va an'analariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi. "Etnomadaniyat" fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. "Etnomadaniyat" fanini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi. Etnomadaniyat ijtimoiy borliqning barcha sohalari bilan bog'liq polifunksional hodisa siafatida.</p>				
2-mavzu. Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida <p>Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida. Markaziy Osipyoda yashagan aholining qadimiy ma'naviy va madaniy qiyofasi. O'tmishtagi ajqdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari. Zardushtiylik davrigacha va undan keyingi madaniy takomil. Ilk davlar birlashmalari, ilk shaharlar.</p>				

3-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyası muammoları

Bugungi kunda o‘tmish ajdodlarimiz hayoti, madaniyati, rasm-rusumlari hamda urf-odatlarini o‘rganishning ahamiyati. Etnografiyaning antrapologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san’atshunoslik sohalar bilan uzviy aloqadorligi. Yangi ilmiy sohalar etnik antrapologiya, paleontologiya, etnolingvistikaning etnoslarni o‘rganishdagi imkoniyatlari.

4-mavzu. Etnos va etniklik. Markaziy Osiyo xalqlarining etnomadaniy tuzilishi

Etnoslar muayyan tarixiy davrning ijtimoiy mahsuli sifatida. Elatni (millatni) belgilovchi muhim alomatlar: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyligi, ong tizimi, etnos uyushqoqligi. Etnik birliklar shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar.

5-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk ajdodlari

Markaziy Osiyo xalqlarining ilk ajdodlari sak, massagetlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar. Ularning hayot tarzi, geografik chegaralari, diniy e’tiqodi, xo’jalik shakllari, moddiy va ma’naviy madaniyati.

6-mavzu. O‘zbek xalqi etnogenezi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar

O‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda muhim manbalar. O‘zbek xalqining etnogenezi bo‘yicha turli ilmiy qarashlar. Sobiq Ittifoq davrida etnogenet masalasiga hukmron mafkuraning ta’siri. O‘zbek millatining shakllanish bosqichlari. Etnogenet masalasida mahalliy olimlar A.Asqarov va K.Shoniyoзов, hamda zamonaviy yosh tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari.

7-mavzu. O‘zbek xalqi etnogenezining davriy bosqichlari

Millat, elat tushunchalari mazmuni. O‘zbek xalqining xalq va millat sifatida shakllanish bosqichlari. Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan – milodiy XVI asrgacha bo‘lgan davrda o‘zbek millati shakllanishidagi muhim sifatiy o‘zgarishlar.

8 -mavzu. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar

Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. O‘tmishni o‘rganishda tarixiy manbalarning ahamiyati. Tarixiy manbalarning guruhlarga bo‘linishi. O‘zbek xalq etnik tarixini o‘rganishdagi muhim manbalar. Yunon-rim, xitoy va fors manbalarida etnik tarixga oid muhim ma’lumotlar.

9-mavzu. Etnomadaniyatning tarkibiy qismlari: xalq turmush tarzi an’analari, urf-odatlari

Markaziy Osiyo zaminida dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan an’analalar, marosim-bayramlar. Eng qadimiy davrlardan boshlab termachilik, ovchilik, chovchachilik,

deqqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga shakllana boshlagan o‘yinraqlar.

Xalq o‘yinlari – etnomadaniyatning tarkibiy qismi. Xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Chorvachilik bilan bog‘liq xalq o‘yinlari. Yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o‘yinlar tizimi. Boshqotirma, so‘z, qo‘sish, raqs-o‘yinlar, voqeband, harakatlari o‘yin turlari.

10-mavzu. Etnomadaniyatning rivojlanishida xalq o‘yinlarining o‘rni

Xalq o‘yinlari -etnomadaniytning muhim tarkibiy qismi. “Ko‘pkari”, “Kurash”, “Chillik”, “Olomon”, “Uloq” o‘yinlarining xalq tafakkuri va jismoniy sifatlarini shakllantirishdagi ahamiyati.

11-mavzu. Qadimgi xalq folkori - etnomadaniyat tarixida muhim manba

O‘zbek xalq folklori tarixi. Qadimgi mif va afsonalar. Etnomadaniy jarayonlarning shakllanishida qadimgi davr folklorining o‘rni va ahamiyati. Doston, ertak, rivoyat va misflar- haqiqatga eltuvchi ijod namunalar.

12-mavzu.O‘zbek xalq og‘zaki og‘zaki ijodi: xalq maqolları, topishmoqları

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Maqollar va ularning yuzaga kelishi. Topishmoqlar – xalq zukkoligi va topqirligi mahsuli. Xalq qo‘shiqlarining paydo bo‘lishi. Doston – o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri.

13-mavzu. Xalq madaniy taraqqiyotda xalq teatrlarining o‘rni

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixida teatrning o‘rni. Dastlabki teatr uyushmalari. Xonliklar davrida qo‘g‘ichoq teatrлari faoliyati. Ilk milliy tatrlarning shakllanishi va rivojlanishi. Xalq madaniyatining yuksalib borishida teatrning tutgan o‘rni.

14-mavzu. Madaniy taraqqiyotda milliy raqlarning o‘rni

Raqs san’ati qadimiy ritmik san’at turi sifatida. Xalqning his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, ma’naviyatini aks ettirishda milliy raqlarning o‘rni. O‘zbek raqs maktablari va ularning o‘ziga xos jixatlari. Xalq madaniyatining takomillasib borishida raqs san’atining o‘rni.

15-mavzu. Etnopedagogika va milliy ma’naviyat

Etnopedagogika va milliy ma’naviyat etnomadaniyatning tarkibiy qismi sifatida. Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning o‘rni. Xalq ijodiyotining va xalq pedagogikasi bilan uyg‘unligi.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Etnomadaniyat fanining predmeti, obyekti va maqsad vazifalari
2. Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida
3. Etnografiya muommolar
4. Etnos va etniklik. Markaziy Osiyo xalqlarining etnomadaniy tuzilishi
5. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk ajoddlari
6. O'zbek xalqi etnogenezi bo'yicha ilmiy yondashuvlar
7. O'zbek xalqi etnogenezining davriy bosqichlari
8. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar
9. Etnomadaniyatning tarkibiy qismlari: xalq turmush tarzi an'analar, urf-odatlari
10. Etnomadaniyatning rivojlanishida xalq o'yinlarining o'rni
11. Qadimgi xalq folkori - etnomadaniyat tarixida muhim manba
12. O'zbek xalq og'zaki og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari
13. Xalq madaniy taraqqiyotda xalq teatrлarining o'rni
14. Madaniy taraqqiyotda milliy raqslarning o'rni
15. Etnopedagogika va milliy ma'nnaviyat

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning yakka tartibda bajariladigan "dala tadqiqoti" kichik tadqiqot ishini amalga oshirishi asosida amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga o'zi tug'ilib o'sgan hududning etnomadaniy qadriyatları qadimiy urf-odatlari, marosimlar, diniy kul'tlarning arxiak izlarini o'rganish va tahlil qilish vazifasi beriladi. Talaba berilgan vazifaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, kuzatish, intervyu, analiz, sintez kabi ilmiy bilishning umumiylari va xususiy metodlari asosida izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, xulosalarini taqdimot ko'rinishida og'zaki himoya qiladi. Ishchi fan dasturida mustaqil ta'lifni bajarish shakli, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Mustaqil ta'lif topshirig'ini to'la tushungan holda bajaraishlarini ta'minlash maqsadida dastlab quyidagi mavzularni o'zlashtirish talab qilinadi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Markziy Osiyoda islomgacha diniy e'tiqod shakllari.
2. Avesto-Markaziy Osiyo madaniyatini o'rganishda muhim manba.
3. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda qadimgi fors manbalarining ahamiyati.
4. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda qadimgi hind manbalarining o'rni
5. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda qadimgi yunon -rim manbalar.
6. Markaziy Osiyo xalqlarining etnomadaniy tuzilishi.
7. O'zbek xalqining etnogenezi bo'yicha konsepsiyalari.

	<p>8. Etnik tarixga oid muhim manbalarning tasnifi</p> <p>9. Etnomadaniyatning rivojlanishida xalq o‘yinlarining o‘rnini</p> <p>10. Qadimgi xalq folklori-etnomadaniyat tarixida muhim manba</p> <p>11. Milliy taraqqiyotda xalq teatrлari va milliy raqslarning o‘rnini</p> <p>12. Etнопедагогика ва milliy ma’naviyat.</p> <p>13. An‘anaviy oila-turmush marosimlari - xalq madaniyatining fenomeni.</p> <p>14. Moddiy madaniyatning etnologik yo‘nalishda tadqiq etilishi.</p> <p>15. O‘zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxiak izlari.</p> <p>16. Etnomadaniyat va milliy o‘zlikni anglash. Milliylik falsafiy axloqiy kategoriya sifatida.</p> <p>17. Ekologik ong va etnomadaniyat.</p> <p>18. Etnomadaniyatning milliy g‘oya bilan mushtarakligi.</p> <p>19. Etnomadaniyat va etnopsixalogiya.</p> <p>20. Etnik va ijtimoiy xotira</p> <p>21. Toponomik materiallarning etnik xotirani tiklashdagi o‘rnini</p> <p>22. Etnotsentrizm ommaviy ong va alohida shaxsning o‘z-o‘zini anglashdarajasiidagi psixologik mo‘ljallar yig‘indisi.</p> <p>23. Etnik birliklar shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar.</p> <p>24. Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning o‘rnini.</p> <p>25. Xalq ijodi va xalq pedagogikasining uyg‘unlashuvi.</p> <p>26. Etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosi.</p> <p>27. Etnomadaniyat va milliy mentalitetni rivojlantirish masalalari</p> <p>28. Eng qadimiy davrdan boshlab shakllana boshlagan xalq o‘yinlari – etnomadaniyatning tarkibiy qismi.</p> <p>29. Tarixiy manbalarning guruhlarga bo‘linishi.</p> <p>30. Zardushtiylik davrigacha va undan keyingi madaniy takomili</p> <p>31. O‘tmishdagagi ajodolarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari</p> <p>32. Etnomadaniyat fanining predmeti, obyekti va maqsad vazifalari</p> <p>33. Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida.</p> <p>34. Etnografiya muommolari.</p> <p>35. Etnos va etniklik.</p> <p>36. Toponomika milliy o‘z-o‘zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi</p>
3.	<p>VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari; etnomadaniyatning mohiyati rivojlanishi bilan omillar; etnogeneza va etnik tarixga oid muhim manbalar; milliy o‘zlikni anglashda etnomadaniyatning o‘rnini to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishi;</p> <p>umuminsoniy qadriyatlar va madaniyatimizning uyg‘unligi; milliy ma’naviyatimiz ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi; jahon ilmi va o‘tmish ajodolarimiz merosida etnik masalalarining nazariy jihatdan o‘rganilishi;</p>

	<p>shaxs va millat ma'naviyatining asosiy jihatlari; ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat, siyosat va axloqning o'zaro aloqadorligi; madaniyatning shakllantiradigan asosiy mezonlar; jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz rivojining o'zaro nisbatlari; etnik madaniyat takomilining asosiy davrlari; bosh ma'naviy qadriyatlarimiz, ularning ahamiyati; ma'naviyat va millat tarbiyasi, milliy ma'naviyatimizda xalq hokimiyyatchiligiga munosabat; etnopedagogika va etnopsixalogiya tushunchalarining mohiyati, yosh avlodni ma'naviy jasorat ruhida tarbiyalash vazifalari; mustaqil O'zbekistonda yosh avlod ma'naviy tarbiyasining dolzarb muammolari; ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda ziyoli mas'uliyati haqida <i>bilishiva ulardan foydalana olishi</i>;</p> <p>o'quvchilarga inson hayotida ma'naviyatning o'rnini va ahamiyatini tushuntira olish; mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning sabablarini tahlil eta olish; o'quvchi yoshlarga milliy ma'naviyatimizning rivojlanish bosqichlari haqida bilim berish; yosh avlodni umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalay olish; ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar mohiyatini anglab yetish; o'quvchilarda bosh ma'naviy qadriyatlarimizga sodiqlik tuyg'usini shakllantira olish; yosh avlodni milliy madaniyatimizga sadoqat ruhida tarbiyalash <i>ko'nikmalariga ega bo'tishi lozim</i>.</p>
4.	<p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • "dala tadqiqoti" taqdimotlarini qilish; • individual loyihibar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihibar
5.	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p>X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sobirova M., Xoliquov E. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. -T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. - 286 b. 2. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. -Т.: Узбекистон, 1999. - 221 б. 3/ Жўраев М. «Сехрли» ракамлар сири. -Т.: Ўзбекистон, 1991. -110 б. 4/ Иброҳимов А. Биз ким ўзбеклар. -Т.: Шарқ, 1999. -400 б. <p>XI. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ўзбекистон Республикасининг “Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” (Янги таҳрирда) ги Қонуни. – Т.: “Адолат”, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi taqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-80-soni Farmoni.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, 2021. - 464 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.
7. Temur tuzuklari. - T.: O'zbekiston NMIU, 2019.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlod, 2019.
9. Маънавият ўлдузлари. –Т.:Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1999.

Axborot manbalari

<http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.

<http://www.gov.uz>– O'zbekiston Respublikasi xukumati portalı.

www.pedagog.uz

www.csipi.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz

www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali

- | |
|--|
| <p>7.</p> <p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil " _____ " _____ dagi qarori bilan tasdiqlangan</p> |
| <p>8.</p> <p>Fan/modul uchun ma'sul:
G.G'. G'affarova - CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)</p> |
| <p>9.</p> <p>Taqrizchilar:
N. A. Nazarov - CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
I.B.Siddiqov - FarDU falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori</p> |

